O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
Sharof Rashidov nomidagi
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
Geografiya va ekologiya fakulteti

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
___________ R.I.Xalmuradov
2024 yil “__”________

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 60530200- O‘G1412
2024 yil “09” 23

# O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYASI
## (1-2 qism)
## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| **Ta’lim sohasi:** | 530 000- Fizika va tabiiy fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60530200 – Geografiya |

Samarqand-2024

| Fan/modul kodi | | O'quv yili | Semestr | ECTS – Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| O`G1412 | | 2025-2026 | 3-4 | 6/6 | |
| Fan/modul turi | | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy | | O'zbek | | 4 | |
| 1. | Fan nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Umumiy (soat) |
| | O'zbekiston geografiyasi 1-qism | 78 | | 102 | 18- |
| | O'zbekiston geografiyasi 2-qism | 74 | | 106 | 180 |

| Fanning maqsadi (FM) | |
|---|---|
| FM1 | **I. FANNING MAZMUNI**<br>**Fanni o'qitishdan maqsad** – Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda O'zbekiston tabiiy va iqtisodiy geografiyasi bo'yicha kompleks bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga O'zbekistonning tabiiy sharoiti va boyliklaridan xo'jalikni rivojlantirishda foydalanish, aholisi, xo'jalikni tarmoqlar tarkibi, hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat. Shuningdek, mazkur fan geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat buyurtmachi hisoblanuvchi umumta`lim muassasalariga O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlaridan darslarni o`tishda shu soha bo'yicha to'la qonli bilim **ko'nikmasiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga o'z mazmuni bilan xizmat** qiladi.<br>**Fanning vazifasi** – talabalarda O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslari, ulardan omilkorlik bilan foydalanish, muhofaza qilish haqida bilimlar berish bilan birga, respublikamiz tabiati va xo'jaligining rivojlanishi qonuniyatlarini, aholi va mehnat resurslari, xo'jaligi, uning tarmoqlar va hududiy tuzilishi hamda rivojlanishi masalalari bo'yicha bilimlarni shakllantirishdan iborat. |

| Fan mazmuni | |
|---|---|
| **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:** | |
| **Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)** | |
| **O'zbekiston geografiyasi 1-qism (O'zbekiston tabiiy geografiyasi)** | |
| M1 | **O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanining ob'ekti va predmeti.**<br>Hududiy mavqedagi tabiiy hududiy komplekslarning makonda tarqalishini va shakllanishini belgilovchi omillar. Tabiiy hududiy komplekslar ierarxiyasi (taksonomik tizimi). Yer landshaft qobig'ining tarkib topish shakllari: kenglik tabiat zonalari va balandlik mintaqalari. Tabiatni o'rganishda tarixiy, genetik, evolyusion va funksional yondoshuv. Kompleks tabiiy geografik rayonlashtirish-hududiy tabiiy geografiyaning metodologik asosi. |
| M2 | **O'zbekistonni geografik o'rganilish tarixi.**<br>O'zbekiston tabiatini geografik o'rganish tarixi bosqichlari. Ayrim olimlar va yetakchi ilmiy maktablarning O'zbekiston tabiatini o'rganishga qo'shgan hissasi. O'zbekistonda shakllangan asosiy ilmiy geografik yo'nalish va maktablar. |
| M3 | **O'zbekistonni geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi.**<br>O'zbekiston tabiatini shakllanishining asosiy qonuniyatlari: tektonikasi va geologik tarixi. Landshaftlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Yer qobig'ining hozirgi kundagi epeyrogenik harakatlari. Zilzilalar. O'zbekistonning seysmik rayonlari. |
| M4 | **O'zbekistonni geomorfologik tuzulishi.**<br>Relyef rang-barang tabiiy sharoitni shakllantiruvchi omil. Morfostruktura va morfoskulptura relyef shakllarining genezisi hamda geografiyasi. O'zbekiston relyefini turlarga ajratish masalalari va hududini geomorfologik rayonlashtirish. |
| M5 | **O'zbekiston iqlimi.**<br>O'zbekiston iqlimiga umumiy tavsif. Landshaftlarning shakllanishida muhim o'rin tutuvchi iqlim hosil qiluvchi omillar tahlili. Iqlim mintaqalarini va zonalarining shakllanishi. Havo haroratining o'rtacha yillik, yanvar va iyul oylaridagi taqsimlanishi. Termik resurslari va ularning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Havo namligi, bug'lanish, yog'inlarning yillik taqsimlanishi. Namlik resurslari va ularning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. Qor qoplami. Shamollar va ularning turlari. O'zbekistonda atmosfera havosining tozaligini saqlash muammolari. |
| M6 | **O'zbekistonning ichki suvlari. Daryolari.**<br>Suv oqimining hosil bo'lishi va yillik taqsimlanishi. Daryolarning to'yinishi, suv sarfi va loyqaligi. Sel hosil bo'lishi, Ichki suvlar rejimining o'zgartirilishi. Orol muammosi. Asosiy kanallar va suv omborlari, ularning ahamiyati. Suv boyliklaridan oqilona foydalanish. |
| M7 | **O'zbekistonning ichki suvlari. Ko'llari va yerik suvomborlari.**<br>Asosiy ko'llari va suv omborlari, kollarning hosil bo'lishiga ko'ra turlari, ko'llarning tarqalishi va ularning ahamiyati. Ko'l va suvombor suv boyliklaridan oqilona foydalanish. |
| M8 | **O'zbekistonning yer osti suvlari.**<br>O'zbekiston hududining er osti suvlari, ularning hosil bo'lishi va genetik turlari. Grunt (sizot) suvlari va ularning gidrokimyoviy xususiyatlari, |

| | |
|---|---|
| | zovur suvlari. O'zbekistonning yer osti suv resurslari va ulardan oqilona foydalanish muammolari. |
| M9 | **O'zbekiston tuproqlari.**<br>O'zbekiston tuproqlari ularning xususiyatlari. Yer resurslari, ularning holati va ulardan oqilona foydalanish. |
| M10 | **O'zbekistonning o'simlik dunyosi.**<br>O'zbekistonning cho'l, adir, tog', yaylov o'simliklari va ularning xo'jalikdagi ahamiyati, muhofazasi. |
| M11 | **O'zbekistonning hayvonot dunyosi.**<br>O'zbekiston hayvonotining landshaft zonalari bo'ylab tarqalishi. O'zbekiston hayvonotini muhofaza qilish muammolari. |
| M12 | **O'zbekistonda tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish.** O'zbekistondagi ayrim regional va mahalliy geoekologik muammolar va ularning echimi. Nodir landshaftlar va tabiat yodgorliklari muhofazasi. Qo'riqxonalar, milliy bog'lar, buyurtmalar |
| M13 | **O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarini xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan baholash.**<br>O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarini sug'orma dehqonchilik, bahorikor dehqonchilik, yaylov chorvachiligi hamda rekreatsiya nuqtai nazaridan baholash. Baholash usullari. |
| M14 | **Landshaftlar shakllanishining antropogen omillari.**<br>Tabiatdan foydalanish usullari almashinishining landshaftlar makrostrukturasi o'zgarishiga ta'siri. O'zbekistonda landshaftlarning zonalligi va balandlik bo'yicha mintaqalanishi. O'zbekiston landshaftlarining tasnifi, asosiy tasnif birliklari. |
| M15 | **O'zbekistonni tabiiy-geografik rayonlashtirish.**<br>Mavjud rayonlashtirish sxemalarining tahlili. O'zbekistonning o'quv maqsadlariga moslashtirilgan tabiiy-geografik rayonlashtirish sxemasi. |
| M16 | **Regional qism. Ustyurt okrugiga tavsif.**<br>Okrugning geografik o'rni, chegaralari, geologek rivojlanish tarixi, yer usti tuzulishi va relyef hamda hosil qiluvchi omillari, iqlimi, yer osti va yer usti suvlariga tavsif, tuproqlari, o'simlik va havyvonot dunyosiga tarif, hududda mavjud geoekologek muomolar va ularning oqibatlari. |
| M17 | **Quyi Amudaryo okrugiga, Qizilqum okrugiga tavsif.**<br>Okrugning geografik o'rni, chegaralari, geologek rivojlanish tarixi, yer usti tuzulishi va relyef hamda hosil qiluvchi omillari, iqlimi, yer osti va yer usti suvlariga tavsif, tuproqlari, o'simlik va havyvonot dunyosiga tarif, hududda mavjud geoekologek muomolar va ularning oqibatlari. Okrugning geografik o'rni, chegaralari, geologek rivojlanish tarixi, yer usti tuzulishi va relyef hamda hosil qiluvchi omillari, iqlimi, yer osti va yer usti suvlariga tavsif, tuproqlari, o'simlik va havyvonot dunyosiga tarif, hududda mavjud geoekologek muomolar va ularning oqibatlari. |
| **O'zbekiston geografiyasi 2-qism (O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi)** | |

| | |
|---|---|
| M18 | **O'zbekistonning jahon siyosiy xaritasidagi o'rni, ma'muriy-hududiy bo'linishi**<br>O'zbekiston Respublikasining geografik va siyosiy geografik o'rni, maydoni va chegaralari. Uning mamlakatni tarixiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liqligi. O'zbekiston Respublikasining makrogeografik, mezogeografik va mikrogeografik tutgan o'rni va roli. Mamalakatning ma'muriy-hududiy tuzilmasi |
| M19 | **O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari ularning xo'jalik ahamiyati**<br>O'zbekistonning yer yuzasi tuzilishi va mineral resurs salohiyati. Iqlimi va suvlari. Agroiqlim resurslari va ularning xo'jalik ahamiyati. Kanallar va suv omborlari, ulardan foydalanishning hozirgi ahvoli. Yer fondi va uning tarkibiy tuzilishi. O'zbekistonning hayvonot va o'simlik dunyosi, ularning xo'jalik ahamiyati. |
| M20 | **O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari**<br>Aholi soni va uning tadrijiy o'zgarishlari. Mamlakat aholisining joylashuv xususiyatlari. Aholi sonining o'sishi va joylashuviga ta'sir qiluvchi omillar. Respublika aholisining tabiiy va mexanik xarakati, ularning mintaqaviy xususiyatlari. Aholining jins-yosh, milliy va ijtimoiy tarkibi. Shahar va qishloq aholisi. Urbanizatsiya va uning regional xususiyatlari. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish. Mehnat bozori va uning hududiy jihatlari. |
| M21 | **O'zbekiston Respublikasi xo'jaligining umumiy tavsifi. O'zbekiston sanoati. Yoqilg'i-energetika majmuasi.**<br>Milliy iqtisodiyotning shakllanishi xususiyatlari. Uning tarkibiy tuzilishi va rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari. Yalpi ichki mahsulot. Mamlakat xo'jaligining ixtisoslashuvi va uning mintaqaviy xususiyatlari. Asosiy ixtisoslashgan tarmoqlari. Iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar va ularning geografik jihatlari. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning ahamiyati. Erkin iqtisodiy zonalar. Sanoatning tarmoqlar tarkibi. Yoqilg'i-energetika majmuasi, uning iqtisodiyotda tutgan o'rni. Yoqilg'i sanoatining tarmoqlari. Ko'mir, neft va gaz sanoati. Yoqilg'i sanoati korxonalarining joylanishi xususiyatlari. O'zbekistonda ko'mir, neft, tabiiy gaz qazib olish. Elektr-energetika sanoati. Elektr stansiyalar va ularning turlari, joylashuvi xususiyatlari. Gidroelektrstansiyalar va issiqlik elektrstansiyalar. Elektr energiya ishlab chiqarishning tadrijiy o'zgarishlari. Sanoat markazlari, sanoat tugunlari, sanoat rayonlari. Muqobil energiya resurslaridan |

| | |
|---|---|
| | foydalanish masalalari. Energiya ishlab chiqarish sikllari. |
| M22 | **Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati. Metallurgiya sanoati** Malakali ishchi kuchi omilli, ixtisoslashuv, majmua, kooperatsiya, avtomabilsozlik, elektronika va elektotexnika sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati mashinasozligi, cho'yan va po'lat ishlab chiqarish, qimmatbaho metallar, boyitish fabrikasi, nodir va qiyin eruvchi metallar |
| M23 | **O'zbekistonda kimyo va qurilish materiallari** Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, gidroliz zavodlari, organik sintez kimyosi, Rezina va plonkalar ishlab chiqarish, sement zavodlari, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati |
| M24 | **Yengil va oziq-ovqat sanoati** Jun gazlama, shoyi gazlama, zig'ir gazlama ishlab chiqarish, to'qimachilik, trikataj, ko'n-poyabzal ishlab chiqarish, matbaachilik, un – yorma, go'sht kambinatlari, yog' ekstraksiya, shakar ishlab chiqarish |
| M25 | **O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi, Dehqonchilik** Qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va roli. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga umumiy tavsif. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari haqida tushuncha. Dehqonchilik. Chorvachilik va uning ixtisoslashuvi. Respublika agrosanoat majmuasi. Mustaqillik yillarida agrar islohotlar. Qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga kelishi. Fermer xo'jaliklarining rivojlanishi. O'zbekiston yer-suv resurslaridan foydalanish. Yangi yerlarning o'zlashtirilishi. Irrigatsiya va melioratsiya. Dehqonchilikning qishloq xo'jaligi va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni. Tarmoqlar tarkibi va rivojlanishi xususiyatlari. Texnika ekinlari (paxta, tamaki, kanof), g'allachilik, bog'dorchilik-uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik, moyli ekinlar va em-hashak ekinlari etishtirish. Qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va mahsulot etishtirishning mintaqaviy xususiyatlari. Dehqonchilik rayonlari. |
| M26 | **O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi, Chorvachilik** Chorvachilikning respublika xo'jaligidagi ahamiyati. Chorvachilik tarmoqlarining joylashuviga ta'sir etuvchi omillar. Chorvachilikni tarmoqlar tarkibi. Qoramolchilik, qo'ychilik va echkichilik, qorako'lchilik, parrandachilik, cho'chqachilik, baliqchilik, pillachilik va boshqa tarmoqlar. Chorvachilik rayonlari Sut-go'sht, go'sht-sut va jun chorvachiligi. Chorva hayvonlari bosh soni va chorvachilik mahsulotlari etishtirishning viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi |

| | |
|---|---|
| M27 | **Ijtimoiy sohalarning tuzilishi va rivojlanish xususiyatlari** Ijtimoiy soxalarning tuzilishi va rivojlanish xususiyatlari. O'zbekiston ta'lim tizimi. Sog'liqni saqlash tizimi va uning rivojlanishi. Aholiga xizmat ko'rsatish. Maishiy, madaniy va boshqa xizmatlar. Rekreatsiya resurslari va rekreatsiya geografiyasi. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi, turizm geografiyasi |
| M28 | **O'zbekiston transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi** O'zbekistonda milliy transport tizimining tarixiy tarkib topishi va rivojlanishi. Transportning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati. Transportda yuk va yo'lovchi tashish geografiyasi. O'zbekistonning savdo-iqtisodiy aloqalarida transportning roli. Respublikaning transport majmuasi. Transportning turlari. Temir yo'l, avtomobil, quvur, havo, daryo transporti. Mustaqillik yillarida mamlakat transportining rivojlanishi, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimlariga chiqish imkoniyatlari |
| M29 | **O'zbekiston Respublikasi xo'jaligining hududiy tarkibi va rayonlari. Toshkent iqtisodiy rayoni** Respublikada xo'jaligida tarmoqlararo va hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishi. Iqtisodiy rayonlashtirishning nazariy va amaliy ahamiyati, uning respublika xo'jaligini rivojlantirish rejalari bilan bog'liqligi. Toshkent iqtisodiy rayoni (TIR). TIRning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va roli; tabiiy va sotsial iqtisodiy omillarining o'ziga xosligi; fan va madaniyat salohiyati; erdan foydalanish borasidagi o'ziga xosliklar; aholisi va mehnat resurslarining mintaqaga xos xususiyatlari; shaharlari va ichki migratsiyaning o'ziga xosligi; o'zaro yaqin xududiy sotsial iqtisodiy tizimlar va ularning aglomeratsiyalar, sanoat uzellari, sanoat rayonlari bilan o'zaro aloqadorligi; mintaqa sotsial iqtisodiy tizimlarining tabiiy tarixiy xududiy tizimlari bilan o'zaro aloqadorligi va munosabatlari; mintaqaning iqtisodiy va xududiy tarkibi; sanoat tarmoqlarining joylashuvi; mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasi va uning mintaqa iqtisodiyoti xududiy tarkibini takomillashtirishdagi o'rni; xudud qishloq ho'jaligi va uni rivojlanish xususiyatlari va joylashuvi; mintaqa transporti, transport tuguni va aloqa sohasining rivojlanish xususiyatlari; shaharlari va tashqi iqtisodiy aloqalari; mintaqani iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammolari. *Toshkent shahri.* Shaharning iqtisodiy va xududiy tarkibi; sanoat tarmoqlarining joylashuvi; shaharning iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasi va uning mintaqa iqtisodiyoti xududiy tarkibini takomillashtirishdagi o'rni; shahar atrofi ho'jaligi va uni |

| | |
|---|---|
| | rivojlanish xususiyatlari va joylashuvi; shahar transporti, transport tuguni va aloqa sohasining rivojlanish xususiyatlari; shaharning tashqi iqtisodiy aloqalari; shahar iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammolari |
| M30 | **Farg'ona iqtisodiy rayoni** FIRning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va roli; mintaqa geografik o'rnini o'ziga xosligi; tabiiy sharoiti va resurslari; aholisi va mehnat resurslarining mintaqaga xos xususiyatlari; sanoat tugunlari, sanoat rayonlari bilan o'zaro aloqadorligi; mintaqa sotsial iqtisosdiy tizimlarining tabiiy tarixiy xududiy tizimlari bilan o'zaro aloqadorligi va munosabatlari; mintaqaning iqtisodiy va xududiy tarkibi; sanoat tarmoqlarining joylashuvi; mashinasozlik, engil sanoat tarmoqlarini mintaqa sanoatida tutgan o'rni; mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasi va uning mintaqa iqtisodiyoti xududiy tarkibini takomillashtirishdagi o'rni; xudud qishloq ho'jaligi va uni rivojlanish xususiyatlari va joylashuvi; mintaqa transporti va aloqa sohasining rivojlanish xususiyatlari; shaharlari va tashqi iqtisodiy aloqalari; mintaqani iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammolari |
| M31 | **Mirzacho'l iqtisodiy rayoni** MIRning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va roli; tabiiy va sotsial iqsiodiy omillarining o'ziga xosligi; erdan foydalanish borasidagi o'ziga xosliklar, mintaqa irrigatsiya tizimi va undan foydalanish, erlarning meliorativ xolati va uning dehqonchilikni rivojlantirishga ta'siri; aholisi va mehnat resurslarining mintaqaga xos xususiyatlari; shaharlari; mintaqaning iqtisodiy va xududiy tarkibi; sanoat tarmoqlarining joylashuvi; mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasi va uning mintaqa iqtisodiyoti xududiy tarkibini takomillashtirishdagi o'rni; xudud qishloq ho'jaligi va uni rivojlanish xususiyatlari, joylashuvi; mintaqa transporti va aloqa sohasining rivojlanish xususiyatlari; tashqi iqtisodiy aloqalari; mintaqani iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammolari. |
| M32 | **Zarafshon iqtisodiy rayoni** ZIRning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va roli; tabiiy va sotsial iqsiodiy omillarining o'ziga xosligi; erdan foydalanish borasidagi o'ziga xosliklar; yer osti va er usti tabiiy boyliklari, ularning hududiy joylashuvi; aholisi va mehnat resurslarining mintaqaga xos xususiyatlari; shaharlari va ichki migratsiyaning o'ziga xosligi; o'zaro yaqin xududiy sotsial iqtisodiy tizimlar va ularning aglomeratsiyalar, sanoat uzellari, sanoat rayonlari bilan o'zaro aloqadorligi; mintaqa sotsial iqtisosdiy tizimlarining tabiiy |

| | |
|---|---|
| | tarixiy xududiy tizimlari bilan o'zaro aloqadorligi va munosabatlari; mintaqaning iqtisodiy va hududiy tarkibi; sanoatning kup tarmoklili, sanoat tarmoqlarining joylashuvi, erkin iqtisodiy sanoat zonasini tashkil etilishining mintaqa sanoati rivojlanishiga ta'siri; mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasi va uning mintaqa iqtisodiyoti xududiy tarkibini takomillashtirishdagi o'rni; xudud qishloq ho'jaligi va uni rivojlanish xususiyatlari va joylashuvi; mintaqa turizm salohiyati va undan foydalanish; mintaqa transporti va aloqa sohasining rivojlanish xususiyatlari; tashqi iqtisodiy aloqalari, eksport va import tarkibi; mintaqani iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammolari |
| M33 | **Janubiy iqtisodiy rayoni** JIRning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va roli; tabiiy va er osti, er usti resurslari; erdan foydalanish borasidagi o'ziga xosliklar; aholisi; mehnat resurslari va ulardan foydalanishning mintaqaga xos xususiyatlari; shaharlari; mintaqa sotsial iqtisosdiy tizimlarining tabiiy tarixiy xududiy tizimlari bilan o'zaro aloqadorligi va munosabatlari; mintaqaning iqtisodiy va xududiy tarkibi; sanoat uzellari, sanoat rayonlari, sanoat tarmoqlarining joylashuvi; mintaqa rivojlanishida yoqilg'i sanoatining o'rni; Sanoatning, mineral resurslar va qishloq xo'jalik, avvalo paxtachilik, xom ashesiga boglik holda rivojlanayotganligi; mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasi; hudud qishloq ho'jaligi va uni rivojlanish xususiyatlari va joylashuvi; mintaqa transporti va aloqa sohasining rivojlanish xususiyatlari; tashqi iqtisodiy aloqalari; mintaqani iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammolari |
| M34 | **Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni** Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va roli; tabiiy va sotsial iqtisodiy omillarining o'ziga xosligi; yer osti boyliklari va ularning hududiy joylashuvi; yerdan foydalanish borasidagi o'ziga xosliklar; suv va er resurslaridan foydalanish muammosi; aholisi va mehnat resurslarining mintaqaga xos xususiyatlari; shaharlari, tashqi va ichki migratsiyaning o'ziga xosligi; mintaqaning iqtisodiy va hududiy tarkibi; qishloq xo'jalik tarmoqlari joylashishini o'ziga xosligi, O'zbekistonning shimolidagi paxtachilik, sholichilik va chorvachilikka ixtisoslashgan hudud ekanligi; sanoat tarmoqlarining joylashuvi; mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasi va uning mintaqa iqtisodiyoti hududiy tarkibini takomillashtirishdagi o'rni; mintaqa transporti va aloqa sohasining rivojlanish xususiyatlari; tashqi iqtisodiy |

| | |
|---|---|
| | aloqalari; mintaqani iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammolari. Iqtisodiy rayonlarning rivojlanish muammolarining mushtarakligi hamda umumiyligi. Iqtisodiy rayonlar xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlari, aholi ijtimoiy hayotini yaxshilashninig muhimligi, ishlab chiqarish va sotsial infrastrukturani talab darajasida tashkil etishning ilmiy asoslari va amaliy tadbirlari. Mintaqaviy siyosat va uni hayotga tadbiq qilish yo'llari |
| | |

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)**
**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**

**O'zbekiston geografiyasi 1-qism (O'zbekiston tabiiy geografiyasi)**

| | |
|---|---|
| A1 | Yozuvsiz kartaga O'zbekistonni davlat chegarasini tushirish. Davlat chegaralari o'tadigan tabiiy obektlarni nomini aniqlash. |
| A2 | O'zbekiston geologik tuzilishini yozuvsiz kartaga tushirish. |
| A3 | O'zbekistonning asosiy tog' tizmalari va ularning eng baland nuqtalarini yozuvsiz kartaga tushirish hamda so'rash. |
| A4 | O'zbekiston tabiiy boyliklarini yozuvsiz kartaga tushirish. |
| A5 | O'zbekiston iqlim kartasini chizish. |
| A6 | O'zbekiston iqlimini shakllantiruvchi omillarni tahlil qilish. |
| A7 | O'zbekiston daryolarini yozuvsiz kartaga tushirish. |
| A8 | O'zbekiston ko'llari va suv omborlarini yozuvsiz kartaga tushirish. |
| A9 | O'zbekistonni suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish. |
| A10 | O'zbekiston tuproqlari kartasini chizish. |
| **A11** | **O'zbekiston o'simlik dunyosi kartasini chizish.** |
| **A12** | **O'zbekiston hayvonot dunyosi kartasini chizish.** |
| A13 | O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish va qo'riqxonalari. |
| A14 | O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlarini yozuvsiz kartaga tushirish. |
| A15 | Ustyurt okrugi tabiiy geografik kartasini yozuvsiz xaritaga tushurish va tahlil qilish. |
| A16 | Ustyurt okrugi tuproqlarini yozuvsiz xaritaga tushurish va tahlil qilish. |
| A17 | Quyi Amudaryo okrugi tavsif geografik kartasini yozuvsiz xaritaga tushurish va tahlil qilish. |
| A18 | Qizilqum okrugi tuproqlarini yozuvsiz xaritaga tushurish va tahlil qilish. |
| A19 | tavsif geografik kartasini yozuvsiz xaritaga tushurish va tahlil qilish. |
| A20 | Quyi Amudaryo tuproqlarini yozuvsiz xaritaga tushurish va tahlil qilish. |
| A21 | Qizilqum okrugi |
| A22 | Qizilqum okrugi flora va faunasini yozuvsiz xaritaga tushurish va |

| | |
|---|---|
| | tahlil qilish. |

**O'zbekiston geografiyasi 2-qism (O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi)**

| | |
|---|---|
| A23 | Yozuvsiz kartaga O'zbekistonning davlat chegarasini tushirish, chekka nuqtalarini aniqlab ularning koordinatalarini yozish, ular orasidagi masofani aniqlash. Davlat chegarasini aniqlab ularning yozuvsiz kartaga tushirish. |
| A24 | O'zbekiston foydali qazilmalari xaritasini chizish, viloyatlar darajasida tahlil qilish. |
| A25 | Statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston aholi soni va tadrijiy o`zgarishini tahlil qilish. Viloyatlar bo'yicha aholi zichligini tahlil qilish va joylashuv kartasini tuzish. |
| A26 | Statistik ma`lumotlar asosida respublika geodemografik vaziyatini tahlil qilish. |
| A27 | Statistik ma'lumotlar asosida sanoatning hududiy tarmoqlar tarkibini aniqlash va chizmalarda ifodalash. |
| A28 | O'zbekistonda ko'mir, neft, tabiiy gaz va elektr energiya ishlab chiqarishning tadrijiy jadvallarini tuzish, tahlil qilish. |
| A29 | O'zbekistonda kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishni statistik tahlil qilish. |
| A30 | O'zbekistonda asosiy yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishning statistik jadvalini tuzish, rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillarni aniqlash. |
| A31 | O'zbekiston qishloq xo'jaligi xaritasini ishlash (Dehqonchilik) |
| A32 | O'zbekiston qishloq xo'jaligi xaritasini ishlash. (Chorvachilik) |
| **A33** | **Viloyatlar bo'yicha paxta va g'alla yetishtirishning tadrijiy jadvalini tuzish va grafiklarda tasvirlash.** |
| A34 | O'zbekiston sog'liqni saqlash va ta'lim tizimining rivojlanishini asosiy statistik ko'rsatkichlari bo'yicha baholash. |
| A35 | Respublika rekreatsiya va turizm ob`ektlarini kontur kartaga tushurish |
| A36 | O'zbekistonning yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini statistik tahlil qilish |
| A37 | Toshkent iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari tahlil qilish, sanoati va qishloq xo`jaligini statistic ma`lumotlar asosida diagramma, grafiklarda dinamikasini tasvirlash, karta-sxemasini chizish. |
| A38 | Farg'ona iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari tahlil qilish, sanoati va qishloq xo`jaligini statistic ma`lumotlar asosida diagramma, grafiklarda dinamikasini tasvirlash, karta-sxemasini chizish. |
| A39 | Mirzacho'l iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va |

| | |
|---|---|
| | mehnat resurslari tahlil qilish, sanoati va qishloq xo`jaligini statistic ma`lumotlar asosida diagramma, grafiklarda dinamikasini tasvirlash, karta-sxemasini chizish. |
| A40 | Zarafshon iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari tahlil qilish, sanoati va qishloq xo`jaligini statistic ma`lumotlar asosida diagramma, grafiklarda dinamikasini tasvirlash, karta-sxemasini chizish. |
| A41 | Janubiy iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari tahlil qilish, sanoati va qishloq xo`jaligini statistic ma`lumotlar asosida diagramma, grafiklarda dinamikasini tasvirlash, karta-sxemasini chizish. |
| A42 | Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari tahlil qilish, sanoati va qishloq xo`jaligini statistic ma`lumotlar asosida diagramma, grafiklarda dinamikasini tasvirlash, karta-sxemasini chizish. |

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"O`zbekiston geografiyasi (1-qism)" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

| **Mustaqil ta'lim mavzulari (MT)** | |
|---|---|
| **O'zbekiston geografiyasi 1-qism (O'zbekiston tabiiy geografiyasi)** | |
| MT1 | O'zbekistonning mezazoy erasidagi polegeografik tuzilishi. |
| MT2 | O'zbekistonning subalp va alp mintaqasida tarqalgan hayvonot dunyosi. |
| MT3 | Cho'l va adir mintaqasi hayvonlari. |
| MT4 | O'zbekistonning tog' va yaylov mintaqasi hayvonot dunyosini muhofaza qilish. |
| MT5 | O`zbekiston Respublikasida biologik hilma-hilligi va ularni muhofaza qilish |
| MT6 | O'zbekistonni tekislik hududida relyef hosil qiluvchi omillar. |
| MT7 | O'zbekistoni tekislik iqlimini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. |
| MT8 | O'zbekiston yerik suv omborlari. |
| MT9 | O'zbekistonni suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish. |
| MT10 | O'zbekistonning foydali qazilmalari. |
| MT11 | O'zbekiston yer resurslari va ulardan oqilona foydalanish. |
| MT12 | O'zbekiston milliy bog'lari. |
| MT13 | Orol dengizi muomosi. |
| **O'zbekiston geografiyasi 2-qism (O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi)** | |
| **MT1** | O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi, kattaligi, chegaralari, iqtisodiy geografik o'rni,tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. |
| **MT2** | O'zbekiston Respublikasi aholisi va mehnat resurslari. Aholining hududiy joylashishi va undagi asosiy siljishlar. Aholining hududiy joylashishidagi geografik tafovutlar. |
| **MT3** | O'zbekiston Respublikasi sanoati. Sanoat tarmoqlari, ularni rivojlantirish va hududiy joylashtirish sharoitlari va omillari. Respublika sanoatining rivojlanish ko'rsatkichlari, ulaming tarkibi |
| **MT4** | O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmoqlari. Yer fondi - qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosidir, uning tarkibi. O'simlikshunoslik (ziroatchilik) tarmoqlari, tarkibi, xususiyatlari va geografiyasi. Chorvachilik tarmoqlari |
| **MT5** | O'zbekiston Respublikasi transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. O'zbekiston iqtisodiyotida transport tarmoqlarining o'rni va tarkibi. O'zbekiston transport tarmoqlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, geografiyasi. O'zbekiston transportining mustaqillik yillarida rivojlanishi. |
| **MT6** | O'zbekiston Respublikasi turizm va rekreatsion xizmatlarni qo`shni davlatlar bilan qiyoslash |
| **MT7** | **Toshkent iqtisodiy rayonini iqtisodiy geografik tahlil qilib, joriy yil** statistik ma`lumotlardan foydalangan holda tarmoq kartasini tuzish va rayon iqtisodiyotinini rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillarni tahlil qilish. |
| **MT8** | Farg`ona iqtisodiy rayonini iqtisodiy geografik tahlil qilib, joriy yil statistik ma`lumotlardan foydalangan holda tarmoq kartasini tuzish va rayon iqtisodiyotinini rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillarni tahlil qilish. |
| **MT9** | Mirzacho`l iqtisodiy rayonini iqtisodiy geografik tahlil qilib, joriy yil statistik ma`lumotlardan foydalangan holda tarmoq kartasini tuzish va rayon iqtisodiyotinini rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillarni tahlil qilish. |
| **MT10** | Zarafshon iqtisodiy rayonini iqtisodiy geografik tahlil qilib, joriy yil statistik ma`lumotlardan foydalangan holda tarmoq kartasini tuzish va rayon iqtisodiyotinini rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillarni tahlil |

| | |
|---|---|
| | qilish. |
| **MT11** | Janubiy iqtisodiy rayonini iqtisodiy geografik tahlil qilib, joriy yil statistik ma`lumotlardan foydalangan holda tarmoq kartasini tuzish va rayon iqtisodiyotinini rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillarni tahlil qilish. |
| **MT12** | Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonini iqtisodiy geografik tahlil qilib, joriy yil statistik ma`lumotlardan foydalangan holda tarmoq kartasini tuzish va rayon iqtisodiyotinini rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillarni tahlil qilish |

**"O`zbekiston geografiyasi"** fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi, kattaligi, chegaralari, iqtisodiy geografik o'rni,tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, O'zbekiston Respublikasi aholisi va mehnat resurslari, aholining hududiy joylashishi va undagi asosiy siljishlar. Aholining hududiy joylashishidagi geografik tafovutlar, O'zbekiston Respublikasi sanoati, sanoat tarmoqlari, ularni rivojlantirish va hududiy joylashtirish sharoitlari va omillari, respublika sanoatining rivojlanish ko'rsatkichlari, ulaming tarkibi, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmoqlari, yer fondi - qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosidir, uning tarkibi, o'simlikshunoslik (ziroatchilik) tarmoqlari, tarkibi, xususiyatlari va geografiyasi, chorvachilik tarmoqlari, O'zbekiston Respublikasi transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari, O'zbekiston iqtisodiyotida transport tarmoqlarining o'rni va tarkibi, O'zbekiston transport tarmoqlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, geografiyasi, O'zbekiston transportining mustaqillik yillarida rivojlanishi, O'zbekiston Respublikasi turizm va rekreatsion xizmatlarni qo`shni davlatlar bilan qiyoslash va boshqalar keng ma'lumotlar berib ular haqida ham o'quvchilar bilim ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

| | |
|---|---|
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>Talabalar «O`zbekiston geografiyasi» fanini o`rganish jarayonida quyidagilarni bajara olishi lozim: |
| | -" O`zbekiston geografiyasi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:<br>- fanning asosiy manbalari, g'oya, tushuncha, nazariya va qonuniyatlar haqida bilimlarni ***bilishi kerak***;<br>O'zbekistonning tabiiy, mineral xomashyo salohiyati va ularning xo'jalik ahamiyati, O'zbekistonning aholisi, soni, tarkibi, joylashuvi, geodemografik vaziyati, demografik tahlil, mehnat resurslari, O`zbekiston transpotri turlari va tarmoqlari, O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining asosiy yo'nalishlari, iqtisodiy rayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari kabi ijtomoiy masalalarini bilishi va ulardan foydalana olishi ***ko'nikmalariga ega bo'lishi*** kerak;<br>- fanga oid statistik ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil qilish xamda tegishli xulosalar chiqarish ***malakalariga ega bo'lishi*** kerak. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• *munozara,*<br>• *o'z-o'zini nazorat.*<br>• "Aqliy hujum",<br>• "Muammo";<br>• Krossvord<br>• Annogrammalar<br>• Ko'chma dars mashg'ulotlari |
| 5. | **VII. Kreditni olish uchun talablar:**<br>**Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil** ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish |

**6. Asosiy adabiyotlar:**

1-qism uchun
1. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т., Ўқитувчи, 1996.
2. Ҳасанов И. Ўзбекистон табиий географияси (маърузалар матни).-Т., ЎзМУ, 2000.
3. Ҳасанов И., Ғуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси (1-қисм). Ўқув қўлланма.-Т.: Ўқитувчи, 2007.
4. Ҳасанов И., Ғуломов П.Н., Қаюмов А. Ўзбекистон табиий географияси (2-қисм). Ўқув қўлланма.-Т.: Университет, 2010.
2-qism uchun
1. Qurbonov Sh.B., Fedorko. O'zbekiston geografiyasi. Darslik.-T.: "Yangi Chirchiq prints", 2024

| | |
|---|---|
| | 2. Soliyev A.S. O‘zbekiston geografiyasi. Darslik. T-2014, 352 bet<br>3. Soliyev A.S. va boshqalar Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik T-2019,<br>4. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov SH. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi. –T.: “Mumtoz so‘z”, 2010.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar:**<br>1-qism uchun<br>1. Акрамов З.М., Рафиков А.А. Прошлое, настоящее и будущее Аральского моря.-Т., 1990.<br>2. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А., Зокиров Ш.С. Агроклиматические условия сельского хозяйства Узбекистана.-Т.: Меҳнат, 1975.<br>3. Бабушкин Л.Н, Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекской ССР. Труды ТашГУ. Нов.серия. вып 231. Географические науки, кн.27. –Т., 1964.<br>4. Богданов О.П. Животные Узбекистана.-Т.: Ўқитувчи, 1975.<br>5. Мўминов А. ва бошқалар. Ўзбекистон табиий географияси. -Т.: Ўқитувчи, 1984.<br>6. «1988-2008 йилларда Ўзбекистон Республикасида атроф-муҳит ва табиий ресурслардан фойдаланишнинг холати тўғрисида Миллий маъруза». -Т., 2009.<br>7. Ҳасанов И.А., Ғуломов П.Н. Ўрта Осиё табиий географияси.-Т.: Университет, 2002.<br>2-qism uchun<br>1. Муллажонов И. Население Узбекистана. -Т.: “Ўзбекистон”, 1989.<br>2. Soliyev A.S., Mallaboev T. Iqtisodiy va sotsial geografiya kursida ayrim qonuniyatlarni o‘rganish metodikasi.-T., 1995.<br>3. Soliyev A.S., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy muammolari. -T., 1999.<br>4. G‘ulomov S., Ubaydullaeva R., Ahmedov E. Mustaqil O‘zbekiston (o‘zbek, ingliz tillarida). -T.: “Mehnat”, 2001.<br>5. Soliyev A.S., Nazarov M.I., Qurbonov SH.B. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. - 348 b.<br>6. Ma’muriy rayon va shaharlarni iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganish uslubi. Metodik qo‘llanma Samarqand -1995<br>**Axborot manbalari (saytlar):**<br>www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari portali<br>www.ziyonet.uz -O‘zbekiston Respublikasi ta`lim portali<br>www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi statistika qo`mitasi portali |
| **7.** | Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil “24” avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan **ma’qullangan.** |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>**K.Davronov**- SamDU, “Geografiya va tabiiy resurslar” kafedrasi katta o`qituvchi<br>**O.L.Muxamedov** – SamDU, “Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya” kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>**T.Jumabayev** – SamDU, “Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya” kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi (tel: (90) 454-64-08<br>**Samyayev A.K.** –Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedra katta o'qituvchisi g.f.f.d (PhD) A.Samyayev (tel:(93)3407229). |

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais – Xaydarov S.A.

**Kafedra mudiri:** **M.R.Usmanov**

**Fakultet dekani:** **S.B.Abbasov**

**Sharof Rashidov nomidagi**
**SamDU O‘quv ishlari bo‘yicha**
**1-prorektor:** **A. S. Soleyev**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitety Geografiya va ekologiya fakulteti "Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n. O.Muxamedovning 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari uchun tuzilgan "O`zbekiston geografiyasi" (2-qism) fan dasturlarga**

**TAQRIZ**

Mazkur dasturni tuzishda 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talabi asos qilib olingan. **"O`zbekiston geografiyasi" (2-qism)** o'quv kursi o'quv jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur fanning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llari bo'yicha bilimlarni shakllantirishga hamda mustaqil ta'limni tashkil etishga qaratilgan. Shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar keltirilgan. **"O`zbekiston geografiyasi" (2-qism)** fani bo`yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda Kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati berilgan.

Dasturni tuzishda geografiya ta`lim yo`nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablari asosida fan dasturi ishlab chiqish va tadbiq etish tartibiga rioya qilingan.

**"O`zbekiston geografiyasi" (2-qism)** o'quv dasturi OTM uchun 2-kursi me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo'yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy fan dasturi sifatida qo'llaniladi hamda tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

"Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n. O.Muxamedov tomonidan tuzilgan ushbu dastur belgilangan tartibga mos keladi va undan o'quv-jarayoniga foydalanish mumkin.

**Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi,**
**Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi**
**katta o'qituvchisi g.f.f.d (PhD)** **A.Samyayev**

A. Samyayev ning
Imzosini tasdiqlayman
Kadrlar bo'limi

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitety Geografiya va ekologiya fakulteti Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n. O.Muxamedovning 60530200 – Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari uchun tuzilgan "O`zbekiston geografiyasi" (2-qism) fan dasturlarga**

**TAQRIZ**

Ushbu fan dasturni 60530200 – Geografiya ta`lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan bo`lib, muallif shu yo`nalish bo`yicha malaka talabi asos qilib olingan. **"O`zbekiston geografiyasi" (2-qism)** o'quv kursi o'quv jarayonida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir bilimlarni umumlashtirish, mazkur fanning dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish yo'llari bo'yicha bilimlarni shakllantirishga hamda mustaqil ta`limni tashkil etishga qaratilgan. Shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar keltirilgan. **"O`zbekiston geografiyasi" (2-qism)** fani bo`yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda Kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati berilgan. Dasturni tuzishda geografiya ta`lim yo`nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablari asosida fan dasturi ishlab chiqish va tadbiq etish tartibiga rioya qilingan.

**"O`zbekiston geografiyasi" (2-qism)** o'quv dasturi OTM uchun 2-kursi me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo'yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy fan dasturi sifatida qo'llaniladi hamda tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. "Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n. O.Muxamedov tomonidan tuzilgan ushbu dastur belgilangan tartibga to`la mos kelishini inobatga olib undan o'quv-jarayoniga foydalanish mumkin.

**Sharof Rashidov nomidagi SamDU**

**Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti** **T.Jumabayev**